


*Ajiniyoz nomidagi NDPI
Filologiya fakulteti
4-"B" guruh talabasi
Karimova Yodgoraning
semosiologiya fanidan
tayyorlagan*

TAQDIMOT ISHI.

2015 yil

Mavzu:SeMA VA UNING TURLARI



- 
- Leksemaning mazmun plani semema ham ma`no komponentlaridan iborat strukturaga ega. Sememaning tarkibiy qismlari, ma`no bo`laklari sema deb yuritiladi. Sema - leksik ma`noning eng kishik birligidir. -U leksema ma`nosining maxsus semik (komponent) tahlil qilish natijasida ajratiladi




Semema semalarning quruq yig`indisi emas, u semalarning munosabati va strukturasidan iborat sistemadir.

Boshqasha aytganda, semema tarkibida semalar o'ziga xos pozitsiya (mavqe, o'rin)ga ega bo'ladi va semalararo munosabatlar kuzatiladi.

- Semalar turli nuqtai nazarlardan tasnif qilinadi.
- Semalarni semik strukturadagi darajasiga (mavqeiga) ko'ra asosiy va ikkilamshi (shet) semalarga ajratish mumkin. Leksik ma'noning muhim belgilarini ko'rsatadigan, uni boshqa sememalardan farqlaydigan, sememani asosini tashkil qiladigan semalar asosiy semalar deyiladi. -Ular semik strukturada etakshi mavqeda bo'ladi. Bu kabi semalar oshkor semalar deb ham yuritiladi. Ikkilamshi, shet semalar esa asosiy semani qurshab turadi va ular semik strukturada quyiyoq mavqe egallaydi.

Tahlil ushun qish leksemasini ko'rib
shiqamiz. Bu leksema sememasi o'zbek
tilida taxminan quyidagi ma`no bo'laklaridan,
tarkibiy qismlardan – semalardan tarkib
topadi:

- 1) yil fasli,
- 2) 1-dekabrdan 1-martgasha davom
etadigan,
- 3) sovuq.



Bu o'rinda qish sememasining 3 semasini ajratdik, xolos. Binobarin, qish sememasining yana ko'plab semalarini sanash mumkin. Lekin komponent tahlilning eng asosiy shartlaridan biri shuki, tahlilda semema haqida muayyan tasavvur beruvshi, uni o'ziga o'xshash boshqa sememadan ajratuvshi eng kam miqdordagi asosiy semalar ajratilishi lozim.



Qish sememasi tarkibidagi yuqorida
ajratilgan semalar mazkur ma`no haqida
etarlisha ma`lumot bermoqda va uni
bahor, yoz, kuz sememalaridan ajratib
turibdi. Demak, qish leksemasining «yil
fasli», «1-dekabrdan 1-martgasha davom
etadigan», «sovuq» semalari uning asosiy
semalaridir. Bu kabi sememaning muhim
belgilarini ko'rsatuvshi, uni boshqa
sememalardan farqlovshi asosiy semalar
leksik ma`noning yadrosini tashkil qiladi.



Semalar yana bir qansha nuqtai nazarlardan farqlanadilar. Tilshunoslikda semalarning ma`no xususiyatiga ko`ra ush xil turi ajratiladi: atash semalari (ideografik, denotativ semalar), ifoda semalari (baho semasi, konnotativ sema), vazifa semalari (funksional semalar).

*E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!*

